



VOYAGA YETMAGANLAR VIKTIMOLOGIYASINING DOLZARB MUAMMOLARI: PROVOKATIV VIKTIMLIKNING KRIMINOLOGIK VA VIKTIMOLOGIK TAHLILI

Muallif: IIV zaxirasidagi mayor

Abdijalilova Madina G'ofur qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar orasida provokativ viktimlik muammosi kriminologik va viktimologik nuqtai nazardan chuqur va har tomonlama tahlil qilingan. Maqolada provokativ viktimlikning nazariy-metodologik asoslari, voyaga yetmaganlar orasida uning namoyon bo'lish shakllari, xalqaro tajriba va muammoni bartaraf etish yo'llariga oid ilmiy asoslangan tavsiyalar bayon etilgan. Tadqiqot natijasida voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining oldini olish va kamaytirish bo'yicha kompleks tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Provokativ viktimlik, viktimologiya, voyaga yetmaganlar, viktimologik profilaktika, ijtimoiy-psixologik omillar, kiberviktimlik.

KIRISH

Bugungi kunda voyaga yetmagan shaxslarning jinoyatchilik qurboniga aylanishi, ayniqsa, ularning o'z xatti-harakatlari, ijtimoiy muhitga moslashishdagi qiyinchiliklari yoki tashqi ta'sirlarga nisbatan javob reaksiyasi natijasida yuzaga keladigan provokativ viktimlik holatlari alohida e'tiborni talab qilmoqda. Viktimologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar ko'pincha o'zlarining psixologik yetuk emasligi, tajribasizliklari, emotsional beqarorligi yoki noto'g'ri ijtimoiy-psixologik muhitda tarbiyalanganliklari sababli o'zlari jinoyat sodir etilishiga sababchi bo'ladigan vaziyatlarga tushib qoladilar. Ushbu holat esa provokativ viktimlik tushunchasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, jinoyatchi va qurbon o'rtasidagi murakkab munosabatlar tizimini chuqur tahlil qilishni taqozo etadi.

Viktimologiya - jinoyatlarning qurbonlari to'g'risidagi fan sifatida kriminologiyaning muhim va ajralmas tarkibiy qismidir. Viktimologiya jinoyat



qurbonining nafaqat viktimlashuv jarayonini, balki, viktinga xos muayyan xulq-atvor xususiyatining jinoyat sodir etilishiga bevosita va bilvosita ta'sirini ham tadqiq etadi. Bunday xususiyatlarga, provokativ, passiv, aktiv kabi viktinga xos xulq-atvor formalari kiradi.

Provokativ viktimlik jinoyat sodir etilishida qurbon tomonidan ko'rsatiladigan faol yoki nafaol harakatlar orqali jinoyat sodir etilishini turtki beruvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida tavsiflanadi. Provokativ viktimlik hodisasining jamiyatga zarari juda katta bo'lib, u nafaqat voyaga yetmaganlarga, balki butun jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu hodisa voyaga yetmaganlarning jismoniy va ruhiy salomatligiga putur yetkazishi, ularning ijtimoiylashuv jarayoniga to'sqinlik qilishi, kelgusida jinoyat sodir etish ehtimolini oshirishi, jamiyatda zo'ravonlik va jinoyatchilik darajasining ortishiga sababchi bo'lishi mumkin. Shu jihatdan, voyaga yetmaganlar provokativ viktimligini o'rganish va unga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

PROVOKATIV VIKTIMLIKNING NAZARIY ASOSLARI

Provokativ viktimlik tushunchasi ilk bor nemis kriminologi Gans von Gentig tomonidan o'rganilgan. U o'zining "The Criminal and His Victim: Studies in the Sociobiology of Crime" (1948) nomli asarida jinoyatni sodir etishda qurbonning faol roli mavjud bo'lishi mumkinligini ta'kidlab, "qurbon-jinoyatchi" (victim-offender) o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga diqqat qaratgan. Aynan u viktimologiyada subyektiv faoliyat konsepsiyasini asoslab berdi va jinoyatlarda ayrim jabrlanuvchilar tomonidan provokatsion harakatlar jinoyatchining xatti-harakatiga bevosita turtki bo'lishini ilgari surgan.¹

Keyinchalik kriminolog Benjamin Mendelson 1947 yilda jabrlanuvchilarning xulq-atvoriga asoslangan klassifikatsiyasini taklif etib, "aybdor qurbon" (victim with guilt) tushunchasini kiritgan. U provokativ viktimlikni jinoyatni boshlovchi, uni rag'batlantiruvchi yoki jinoyatchining harakatini asoslashi mumkin bo'lgan xatti-

¹ Von Hentig, H. (1948). *The Criminal and His Victim: Studies in the Sociobiology of Crime*. New Haven: Yale University Press.



harakatlar bilan bog'lagan. Mendelsohn bu asosda viktimologiyani mustaqil fan sifatida shakllantirishga harakat qilgan.²

Shu nuqtai nazardan, provokativ viktimlik tizimli ravishda quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **Faol provokativ viktimlik** - qurbon jinoyat sodir etilishiga bevosita sabab bo'luvchi harakatlarni sodir etadi (masalan, tajovuzkor xulq, haqorat, jismoniy zo'ravonlik, mojarolarni keltirib chiqaruvchi harakatlar).

2. **Passiv provokativ viktimlik** - qurbon jinoyatchiga qarshilik ko'rsatmasdan, o'zini himoya qilmasdan, jinoyat sodir etilishiga imkon yaratadi va shu orqali jinoyatchi uchun qulay sharoit yaratadi.

3. **Ongli provokativ viktimlik** - qurbon o'z harakatlarining oqibatlarini to'liq anglagan holda jinoyat sodir etilishiga yordam beradi va bunday xatti-harakatlarning potensial xavfini tushunadi. Huquqshunos professorlar Rustambayev M.T, va Niyozova S.S. ongli ravishda dalolat qiluvchi viktim tipiga mos jabrlanuvchilarning xulq-atvorini tavsiflashda, jinoiy abortni misol tariqasida ko'rsatishgan.³

4. **Ongsiz provokativ viktimlik** - qurbon o'z harakatlarining jinoyat sodir etilishiga olib kelishini anglamasdan yoki to'liq baholamasdan harakat qiladi va bu holat aksariyat voyaga yetmaganlar orasida keng tarqalgan.

Voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular quyidagi omillar bilan chambarchas bog'liq:

1. **Yosh va psixologik xususiyatlar** - voyaga yetmaganlarning tajribasizligi, emotsional beqarorligi, o'z harakatlarining oqibatlarini to'liq anglash qobiliyatining shakllanmaganligi va impulsiv xulq-atvor modellari.

2. **Ijtimoiy muhit ta'siri** - tengdoshlar ta'siri, oilaviy sharoit, ijtimoiy nazoratning sustligi, noto'g'ri tarbiya va madaniy qadriyatlar.

² Mendelsohn, B. (1963). The Origin of the Doctrine of Victimology. *Excerpta Criminologica*.

³ Rustambayev M.T., Niyozova S.S. *Viktimologiya*.



3. **Axborot-kommunikatsiya vositalari ta'siri** - media, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali zo'ravonlik va deviant xulq-atvorning bevosita yoki bilvosita targ'ib qilinishi, virtualizatsiya jarayonining kuchayishi.

Voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar tahlili viktimologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. BMTning 1989 yildagi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasining 19-moddasida "Ishtirokchi davlatlar bolani ota-onasi, qonuniy vasiysi yoki bola g'amxo'rligini amalga oshiruvchi har qanday shaxs qaramog'ida bo'lgan vaqtda jismoniy yoki psixologik zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish uchun barcha zarur qonunchilik, ma'muriy, ijtimoiy va ta'lim choralarini ko'radilar" deb ko'rsatilgan (BMT, "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya", 1989 yil, 19-modda).

O'zbekiston Respublikasi qonunchilikda voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha bir qator huquqiy kafolatlar mavjud. Xususan, O'zbekiston Respublikasi **"Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"**gi Qonuni, **"Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"**gi Qonuni, **"Ta'lim to'g'risida"**gi Qonuni. Shu bilan birga, **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori** bilan bolalarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash markazlari tashkil etildi. Ma'lumot uchun: ushbu markazlarning asosiy vazifalaridan biri o'quvchi-yoshlarning psixologik salomatligini muhofaza qilish, turli xil zo'ravonlik ko'rinishlarining oldini olish, suisidal holatlarga moyilligi bo'lgan o'quvchilarni barvaqt aniqlash va ularga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish hisoblanadi. Bundan tashqari, **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 339-son qarori** bilan voyaga yetmagan shaxslarga jamoat tarbiyachilarini tayinlash tartibi joriy etilgan.⁴

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VOYAGA YETMAGANLAR PROVOKATIV VIKTIMLIGINING KRIMINOLOGIK TAHLILI

Voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining namoyon bo'lish shakllari

⁴ <https://bolalarvakili.uz/uz/publications/lectures/9>



O'zbekiston sharoitida voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining quyidagi spetsifik namoyon bo'lish shakllari kuzatiladi:

1. **Tajovuzkor xulq-atvor** - jismoniy zo'ravonlik, haqoratlash, qo'rqitish orqali jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lish, nizolarni keskinlashtirish va kuchaytirishga qaratilgan harakatlar.

2. **Moddiy manfaat ko'rish maqsadidagi xatti-harakatlar** - o'g'rilik, firibgarlik yoki boshqa moddiy manfaat ko'rish maqsadida jinoyatchiga sharoit yaratish, boyliklarni namoyish qilish, o'z mol-mulki to'g'risida ehtiyotsiz ma'lumotlar berish.

3. **Giyohvand moddalar iste'moliga aloqador xatti-harakatlar** - giyohvand modda sotib olish yoki iste'mol qilish bilan bog'liq harakatlar, giyohvand moddalarni sotib olish uchun ijtimoiy aloqalar o'rnatish.

4. **Jinsiy xarakterdagi harakatlar** - jinsiy ma'nodagi provokativ xulq-atvor, noto'g'ri tanishuvlar, axloqsiz taklif va harakatlar, jinsiy tajovuzlarga imkon yaratuvchi vaziyatlarda o'zini xavfga qo'yish.

5. **Internetdagi xavfli harakatlar** - ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish, begonalar bilan muloqot, xavfli kontentlarni tarqatish, onlayn provokativ xulq-atvorlar.

Zamonaviy raqamli jamiyatda voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining yangi shakllari va namoyon bo'lish xususiyatlari paydo bo'lmoqda. Raqamli muhitda voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'lmoqda:

1. **Ijtimoiy tarmoqlardagi provokativ xulq-atvor** - voyaga yetmaganlar ko'pincha Instagram, TikTok, Telegram va boshqa platformalarda shaxsiy ma'lumotlarni ehtiyotsiz ravishda oshkor qilish, begonalar bilan xavfli muloqotga kirishish, provokativ foto va videolarni joylash orqali o'zlarini xavfga qo'yishadi.

2. **Onlayn grooming** (internet orqali aldov yo'li bilan yaqinlashish) - voyaga yetmaganlar internetda tanishuv saytlari, ijtimoiy tarmoqlar va o'yin platformalari orqali jinoyatchilar bilan aloqa o'rnatishi, ularning ishonchini qozongan shaxslar bilan real hayotda uchrashuvga rozilik berishi.



3. **Kiber-bulling provokatsiyasi** - voyaga yetmaganlar o'rtasida virtualizatsiya jarayonining kuchayishi, ular tomonidan kiberhujumlar va kiber-bulling provokatsiya qilinishi.

4. **Xavfli onlayn mazmundagi kontentlarni izlash** - voyaga yetmaganlarning qiziqish tufayli pornografik materiallar, ekstremistik g'oyalar, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kontentlarni ongli ravishda izlashi.

5. **Shaxsiy ma'lumotlarning xavfli tarzda oshkor qilinishi** - voyaga yetmaganlar tomonidan o'z joylashuvi, manzili, telefon raqami kabi shaxsiy ma'lumotlarni ijtimoiy tarmoqlarda ochiq oshkor qilish.

VOYAGA YETMAGANLAR PROVOKATIV VIKTIMLIGINING SABABLARI VA OMILLARI

Voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining shakllanishiga quyidagi psixologik va fiziologik omillar ta'sir ko'rsatadi:

- Emotsional rivojlanishdagi muammolar va nobarqarorlik;
- Agressiv xulq-atvor modellari va tajovuzkorlik;
- Stress va depressiya holatlari, ruhiy qiynalishlar;
- Diqqat yetishmasligi sindromlari va impulsiv xatti-harakatlar;
- Boshqa psixologik omillar va shaxsiy xususiyatlar.

Fiziologik jihatdan esa, o'smirlik davridagi gormonlar muvozanatining o'zgarishi, jismoniy rivojlanish va psixofiziologik o'zgarishlar provokativ xulq-atvorning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Voyaga yetmaganlar provokativ viktimligiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-madaniy omillar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. **Oilaviy munosabatlar** - ota-ona nazoratining sustligi, oilaviy nizolar, noto'liq oila, deviant xulq-atvor namunalari, oilada zo'ravonlik holatlari, otalarning tarbiya jarayonida salbiy namuna ko'rsatishi.

2. **Ta'lim muhiti** - maktab va ta'lim muassasalarida nazoratning yetishmasligi, tengdoshlar bilan munosabatlardagi muammolar, bulling hodisalari, maktabda xavfsizlik choralarining yetarli emasligi.



3. **Ijtimoiy muhit** - yashash joyidagi kriminal vaziyat, yomon muhitning ta'siri, noto'g'ri ijtimoiylashuv jarayoni, ijtimoiy nazoratning sustligi.

4. **Ommaviy madaniyat** - zo'ravonlik va deviant xulq-atvorni targ'ib qiluvchi media kontentlar, kinofilmlar, videoo'yinlar, musiqa va umuman ommaviy madaniyatning salbiy ta'siri.

O'zbek jamiyatiga xos milliy-madaniy omillar ham voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining shakllanishiga ta'sir etuvchi o'ziga xos xususiyatlarni belgilaydi, jumladan an'anaviy oilaviy qadriyatlar, mahalla instituti, ta'lim tizimining xususiyatlari.

Voyaga yetmaganlar provokativ viktimligiga ta'sir ko'rsatuvchi huquqiy omillar quyidagilar bilan chambarchas bog'liq:

1. **Huquqiy savodxonlik darajasi** - voyaga yetmaganlarning o'z huquqlari va majburiyatlarini bilmasliklari, huquqiy ongning yetarli darajada shakllanmaganligi.

2. **Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati** - profilaktika ishlarining samaradorligi, voyaga yetmaganlar bilan ishlash mexanizmlarining mukammalligi.

3. **Qonunchilik bazasi** - voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining mukammalligi, huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid qonunchilik normalarining samaradorligi.

VOYAGA YETMAGANLAR PROVOKATIV VIKTIMLIGINING OLDINI OLISH YO'LLARI

Viktimologik profilaktika - bu jinoyat qurboni bo'lish ehtimolini kamaytirishga qaratilgan ko'p qirrali va kompleks chora-tadbirlar tizimidan iborat. Voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining oldini olish bo'yicha quyidagi kompleks viktimologik profilaktika choralari taklif etiladi:

1. **Umumiy viktimologik profilaktika** - voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish, ommaviy axborot vositalari orqali ma'rifiy tadbirlarni kuchaytirish, viktimlik holatlari to'g'risida axborot kampaniyalarini tashkil etish.

2. **Guruhiy viktimologik profilaktika** - xavf guruhiga mansub voyaga yetmaganlar bilan maxsus ishlash, ularga psixologik yordam ko'rsatish, maxsus trening va dasturlarni ishlab chiqish.



3. **Individual viktimologik profilaktika** - har bir voyaga yetmagan bilan yakka tartibda ishlash, individual profilaktika dasturlarini ishlab chiqish, psixodiagnostika va psixokorreksiya.

Voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining oldini olishda ijtimoiy-psixologik choralar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu choralar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. **Psixologik maslahat xizmatlari** - voyaga yetmaganlarga psixologik yordam ko'rsatish, ularda ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish, stress va konfliktlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish.

2. **Ijtimoiy moslashuv dasturlari** - risk guruhiga mansub voyaga yetmaganlarni ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan maxsus dasturlar, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish treninglari.

3. **Oilaviy maslahat dasturlari** - ota-onalar uchun maslahatlar, oilaviy munosabatlarni yaxshilash choralari, otalar va onalarning tarbiya jarayonidagi rolini kuchaytirish.

Voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining oldini olish uchun huquqiy choralar quyidagi kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi:

1. **Qonunchilik bazasini takomillashtirish** - voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilikni mukammallashtirish, viktimologik ta'limni qonunchilik darajasida joriy etish.

2. **Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini kuchaytirish** - voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha maxsus bo'linmalar faoliyatini takomillashtirish, profilaktika inspektorlarini maxsus tayyorlash.

3. **Javobgarlikni kuchaytirish** - voyaga yetmaganlarga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish, jazo tayinlashda jinoyat qurbonining provokativ xulq-atvorini baholash mexanizmlarini takomillashtirish.

Ta'lim tizimi voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim muassasalarida viktimologik bilimlarni integratsiya qilish bo'yicha quyidagi kompleks choralar taklif etiladi:



1. **Viktimologik tarbiya tizimini yaratish** – maktablarda maxsus "Xavfsiz xulq-atvor asoslari" kursini joriy etish. Bu kurs o'quvchilarni 4-ta asosiy komponentga asoslangan bo'lishi mumkin:

- Xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalari;
- Provokativ viktimlikdan saqlanish;
- Internet va ijtimoiy tarmoqlarda xavfsizlik;
- O'z-o'zini himoya qilish va yordam so'rash ko'nikmalari.

2. **Maktab o'quv dasturlariga viktimologik komponentni integratsiya qilish** – mavjud fanlar doirasida viktimologik bilimlarni o'rgatish:

- Huquq asoslari fanida viktimologiya bo'limini joriy etish;
- Informatika fanida internet xavfsizligi mavzularini kuchaytirish;
- Biologiya va sog'lom turmush tarzi darslarida provokativ xulq-atvorning salbiy oqibatlari haqida ma'lumot berish;
- Adabiyot darslarida adabiy asarlar tahlili jarayonida provokativ xulq-atvor va uning oqibatlarini muhokama qilish.

3. **Maktab psixologik xizmatini kuchaytirish:**

- Har bir maktabda professional psixologlar faoliyatini yo'lga qo'yish;
- Psixologlarni viktimologiya sohasida maxsus tayyorlash;
- Xavf guruhiga kiruvchi o'quvchilar bilan individual ishlash tizimini yaratish;
- Psixologik diagnostika va korrektsiya usullarini takomillashtirish.
-

XALQARO TAJRIBA VA UNING O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLANILISHI

Rivojlangan mamlakatlarda voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining oldini olish bo'yicha qator samarali va innovatsion dasturlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan:

1. **AQSh tajribasi** - "Bullying Prevention Program" dasturi orqali maktablarda zo'ravonlikni kamaytirish va voyaga yetmaganlar o'rtasida ijobiy muloqot



ko'nikmalarini shakllantirish, "Safe Schools Initiative" loyihasi orqali ta'lim muassasalarida xavfsiz va qulay muhitni yaratish.

2. **Germaniya tajribasi** - "FAUSTLOS" dasturi orqali voyaga yetmaganlarda nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish, huquqiy ta'limni joriy etish orqali viktimlikni kamaytirish.

3. **Yaponiya tajribasi** - "School Counseling System" dasturi orqali har bir maktabda professional psixologlar xizmatini joriy etish, oila va maktab hamkorligini mustahkamlash orqali provokativ viktimlikni oldini olish.

4. **Shvetsiya tajribasi** - "Family Support Program" orqali risk guruhiga mansub oilalarga yordam ko'rsatish, voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha ombudsman institutini joriy etish.

O'zbekiston sharoitida rivojlangan mamlakatlar tajribasini qo'llash quyidagi ustuvor yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

1. **Ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni takomillashtirish** - har bir maktabda professional psixologlar faoliyatini kuchaytirish, ularni zamonaviy metodika va texnikalar bilan ta'minlash, maktab psixologlari va ijtimoiy pedagoglarning malakasini oshirish.

2. **Oila va mahallalarda profilaktika ishlarini kuchaytirish** - mahalla faollari, ota-onalar va voyaga yetmaganlar uchun maxsus o'quv dasturlarini joriy etish, "Oila maktabi" loyihasini kengaytirish, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini kuchaytirish.

3. **Huquqiy savodxonlikni oshirish** - voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqiy ta'limni kuchaytirish, maktab dasturlariga viktimologik ta'lim elementlarini kiritish, huquqiy madaniyatni tarbiyalash.

4. **Psixologik-ijtimoiy dasturlarni joriy etish** - xavf guruhiga mansub voyaga yetmaganlar uchun maxsus psixologik-ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish, nizolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish, stress va xavfli vaziyatlarni boshqarish treninglarini o'tkazish.

**VOYAGA YETMAGANLAR PROVOKATIV VIKTIMLIGINING
JAMIYATGA ZARARI VA KELAJAK PROGNOZI**



Voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining jamiyatga ko'p qirrali salbiy ta'siri mavjud bo'lib, bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. **Ijtimoiy zarar** - voyaga yetmaganlarning to'laqonli ijtimoiylashuvi jarayoniga to'sqinlik, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir, yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvor modellarining tarqalishi.

2. **Iqtisodiy zarar** - viktimlik holatlarini bartaraf etish uchun sarflanadigan davlat mablag'lari, provokativ viktimlik natijasida jinoyat qurboni bo'lgan voyaga yetmaganlarni davolash, reabilitatsiya qilish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xarajatlari.

3. **Psixologik zarar** - voyaga yetmaganlarda psixologik travma, depressiya, o'z joniga qasd qilish xavfi, psixosomatik kasalliklar, ruhiy rivojlanishdagi muammolar.

4. **Demografik zarar** - voyaga yetmaganlarning jismoniy va ruhiy sog'lig'iga salbiy ta'sir, millat genofondiga zarar, demografik ko'rsatkichlarga salbiy ta'sir.

Voyaga yetmaganlar provokativ viktimligini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ko'rilmasa, quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin:

1. **Jinoyatchilik darajasining oshishi** - voyaga yetmaganlarga qarshi jinoyatlar sonining ko'payishi, ularning og'irlashishi, latent jinoyatchilik darajasining ortishi.

2. **Yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvorning kuchayishi** - giyohvandlik, alkogolizm, axloqsizlik kabi hodisalarning keng tarqalishi.

3. **Jamiyatda zo'ravonlik darajasining oshishi** - yoshlar o'rtasida zo'ravonlik va tajovuzkorlik darajasining ortishi, bulling va kiber-bulling hodisalarining kuchayishi.

4. **Voyaga yetmaganlarning psixofizik rivojlanishiga salbiy ta'sir** - yoshlar o'rtasida psixologik muammolarning ko'payishi, virtualizatsiya jarayonining kuchayishi, realliq bilan virtual dunyo o'rtasidagi chegara yo'qolishi.



Shu sabali, viktimologik profilaktikaning ilg'or xalqaro tajribalarini milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda joriy etish, huquqiy savodxonlikni oshirish, oila instituti rolini kuchaytirish, maktablarda psixologik xizmatni takomillashtirish va boshqa kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

XULOSA

Voyaga yetmaganlar provokativ viktimligini o'rganish bo'yicha olib borilgan kompleks tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy asoslangan xulosalarga kelindi:

1. Provokativ viktimlik - bu qurbonning o'z xulq-atvori orqali jinoyat sodir etilishiga yordam beruvchi yoki uni yengillashtiruvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy holatdir. Voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining o'ziga xos xususiyatlari ularning yosh, psixologik va ijtimoiy xususiyatlari bilan bevosita belgilanadi.

2. Voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining asosiy sabablari psixologik, ijtimoiy-madaniy va huquqiy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular kompleks yondashuvni va ko'p qirrali strategiyani talab qiladi.

3. Zamonaviy axborot texnologiyalari kontekstida voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining yangi shakllari paydo bo'lmoqda. Internet muhitida provokativ xulq-atvor elementlari aniqlangan holatlar sezilarli qismni tashkil etib, bu zamonaviy jamiyatda raqamli xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratish zaruratini ko'rsatadi.

4. Voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining oldini olish uchun viktimologik profilaktika, ijtimoiy-psixologik va huquqiy choralarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni kuchaytirish zarur. Ta'lim muassasalarida viktimologik bilimlarni maktab o'quv dasturlariga integratsiya qilish orqali provokativ viktimlik darajasini sezilarli kamaytirish mumkin.

5. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash orqali voyaga yetmaganlar provokativ viktimligini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

6. Voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining jamiyatga zarari juda katta bo'lib, u ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va demografik zararlarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:



1. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuniga voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining oldini olish bo'yicha maxsus normalarni kiritish.
2. Ta'lim muassasalarida viktimologik profilaktika dasturlarini joriy etish va ularni muntazam ravishda yangilab borish, maktab psixologlari va ijtimoiy pedagoglarning malakasini oshirish.
3. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish uchun maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish, "Huquqiy savodxonlik" kursini maktab dasturiga kiritish, internet xavfsizligi bo'yicha maxsus trening dasturlarini ishlab chiqish.
4. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini voyaga yetmaganlar provokativ viktimligini aniqlash va unga qarshi kurashish bo'yicha maxsus tayyorlash, ushbu yo'nalishda mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish.
5. Xavf guruhiga mansub voyaga yetmaganlar uchun individual psixologik-ijtimoiy yordam dasturlarini ishlab chiqish, ularga muntazam ravishda psixologik maslahatlar berish.
6. Ota-onalar va pedagoglar uchun voyaga yetmaganlar provokativ viktimligining oldini olish bo'yicha maxsus qo'llanmalar va treninglar ishlab chiqish, oila institutining rolini kuchaytirish.
7. Raqamli kontekstda voyaga yetmaganlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish, internet xavfsizligi bo'yicha savodxonlikni oshirish, "Xavfsiz internet" platformasini yaratish va rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Von Hentig H. The Criminal and His Victim: Studies in the Sociology of Crime. -- New Haven: Yale University Press, 1948. -- P. 303-312.
2. Mendelsohn B. The Origin of the Doctrine of Victimology // Excerpta Criminologica. -- 1963. -- Vol. 3. -- P. 95-104.
3. Rustambayev M. Niyozova S. Viktimologiya: Darslik. -- Toshkent: TDYU, 2021..



4. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni. 2010 yil 29 sentyabr. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2010 yil, №39, 341-modda.
5. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 2008 yil 7 yanvar. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 yil, №1-2, 1-modda.
6. BMT, "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya", 1989 yil.